



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FARD JANRINI O'QITISHDA MAQOLLARNING O'RNI

Nurullayeva Sarvinoz Majidovna,

Jondor tuman IM o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyotidagi fard janrini xalq og'zaki ijodidagi maqollar bilan qiyosiy o'rganishga doir mulohazalar, ayrim tahlillar va metodlarni qo'llashga doir tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiy janr, fard, xalq og'zaki ijodi, paremik tur, maqol.

O'z davrida she'riyatning katta-kichik barcha janrlarida ijod qilgan Hazrat Alisher Navoiyning ijodi rang-barang lirik janrlarga boyligi bilan ajralib turishi shubhasiz. Shoir qalamiga mansub g'azal, ruboiy, tuyuq, fard, doston kabi janrlar umumta'lim maktablarining adabiyot darsliklaridan ham o'rin olgan. Xususan, 5-sinf adabiyot darslarida "Hayrat ul-abror" dostonidan hikoyatlar, 6-sinfda shoirning ruboiylari, 7-sinf adabiyot darslarida qit'olari va fardlari, 8-sinfda g'azallari, 9-sinfda "Farhod va Shirin" dostoni, 10-11-sinflarda esa "Saddi Iskandariy" dostoni o'rganiladi. 7-sinf adabiyot darslarida "Alisher Navoiy fardlari tahlili", "Mumtoz adabiyot janrlarini qiyoslaymiz" [Mirzayeva Z., Jalilov K., 124, 128] mavzularini o'tayotganda bevosita xalq og'zaki ijodidagi maqollarga murojaat etishga ehtiyoj seziladi.

Darslikning fardlar tahliligiga bag'ishlangan qismida ushbu janr quyidagicha izohlangan: "Fard (arabcha "yakka", "yolg'iz") mumtoz adabiyotda qo'llangan janrlardan biri bo'lib, unda muallifning hayotiy kuzatishlariga asoslangan xulosalari, g'oyalari ilgari suriladi. Fard bir bayt (ikki qator)dan tashkil topadi" [Mirzayeva Z., Jalilov K., 127]. Fardning janriy xususiyatlarini tushuntirgach, o'quvchilarga: "Ajodlarimizning uzoq tajribalarga, hayotiy kuzatishlarga asoslangan xulosalari aks etgan yana qaysi kichik janr bor?" – deya savol bilan murojaat qilib, 5-sinfda o'tilgan maqollar mavzusini esga olish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini "T-jadval", "Baliq skeleti" yoki "Ven diagrammasi" metodlari orqali aniqlashni topshirish mumkin. Fardlar tahlili jarayonida esa ularga mos maqollarni topish mavzuni yanada yaxshi tushunishga yordam beradi.

Tahlil jarayonida o'qituvchi oldindan tayyorlangan, berilgan fardlarga mos maqollarni topib kelib, test usulidan yoki jadval ko'rinishidagi "Moslashtiring", tarqatma shaklidagi "Juftini top", "Singan tuxum" ta'limiy metodlaridan foydalanib, mos javoblarni topish topshirig'ini berishi mumkin. Bu orqali o'quvchi ham fardda ifodalangan mazmunni tushunadi, ham uning maqolga o'xshashligining isbotini amalda ko'radi.

Masalan, quyidagi fard tahlilini ko'raylik:

Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,

Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?

Tahlilni, albatta, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'atini tuzishdan boshlaymiz. Bunda: dam urmoq – so'zini bo'lmoq, gapirishga to'sqinlik qilmoq; tiyra – xira; zohir aylamoq – ochiqqlamoq, ayon qilmoq demakdir. Farddan anglashilicha, birov sening aybingni aytsa, uning so'zini bo'lib, gapirishga to'sqinlik qilmoq noto'g'ri. Chunki ko'zguga nafas urilsa, u xira bo'ladi va natijada aybingni ortiq ko'rsatmaydi. Kishiga uning aybini aytgan inson ham misoli ko'zgudir, u kamchiliklaringni bildirib turadi, nuqsonini bilgan kishi esa uni tuzatishga harakat qiladi. Demak, aybingizni ayon qilgan kishi aslida do'stdir. U sizning illatli emas, fazilatli bo'lishingizni istaydi. Ushbu fardga "Do'st do'stga oyna" maqoli, shuningdek, "Musulmon musulmonga ko'zgu" hadisi mazmunan mosdir.

Quyida Alisher Navoiy fardlarida ifodalangan xulosalarga mos keluvchi ayrim maqollar aks etgan jadvalni taqdim etamiz:

1.Yuqar yamonlig` angakim, kirar	A.Saxiyning o'ng qo'li berar,
----------------------------------	-------------------------------

yamon el aro, Ko'mur aro ilik urg'on qilur ilgini qaro.	Chap qo'li bilmas.
2. Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu, Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?	B. Sabr qilsang, tuyaning yukini bo'ta ko'tarar.
3. Kishi aybin yuziga qilma izhor, Taammul ayla o'z aybingg'a zinhor.	D. Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, Uzoq bilan yaqinni — yurgan.
4. Men – sinuq, ko'nglum – sinuq, sabrim uyi xud yerga past, Bilmagay holim shikastin, ko'rmagan buncha shikast.	E. Zang temirni kemirar, Hasad – odamni.
5. Yetar chu rizqing, agar xoradur va gar yoqut, O'zungga yuklama anduh tog'in, istab qut.	F. Avval o'zingga boq, Keyin nog'ora qoq.
6. Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo'q, Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo'q.	G. Qo'li singanning dardini qo'li singan biladi.
7. El ichra, ey hasud, seni qildi haq zalil, Kim nohaq elga zidsen-u, haq molig'a baxil.	H. Bir qoshiq oshim — G'alvasiz boshim.
8. Takalluf erur tang'a farsudaliq, Aning tarkidur jong'a osudaliq.	I. Ilon o'z egriligini bilmas, Tuyaning bo'ynini egri der.
	J. Do'st do'stga oyna.
	K. Boshidan o'tmaganni qoshidan o'tma
	L. Boriga rozi bo'l, Yo'g'iga sabr qil.
	M. Dard tortmagan dard bilmas.
	N. Behuda olqishlagan do'st emas.
	O. Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, Yomonga yaqin yursang, olasi yuqar.

(Javob: 1-Q, 2-J, 3-F, I, 4-D, G, K, M, 5-B, H, L, 6-A, 7-E, 8-N)

Bunda birinchi ustunda berilgan fardlar mazmuniga ikkinchi ustunda berilgan maqollardan mosi topilib, birlashtiriladi. Topshiriqni bajarishdan oldin bir fardga bir necha maqol mos kelishi ham mumkinligi ogohlantirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu jadvaldan darsning "Mustahkamlash" qismida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib foydalanilsa, mavzu mustahkamlanishiga, fardlar mazmuni oson tushunilishiga hamda eslab qolinishiga, tafakkur va tasavvurning o'sishiga, o'quvchilarda jamoa bilan ishlash ko'nikmalari rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, fard janrini maqollar bilan qiyosiy o'rganish o'quvchini topqirlikka, kreativlikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, tasavvurini kengaytiradi. Qolaversa, fardning mohiyatini anglashga yordam berishi bilan tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.

2. Сулаймонов Ш., Тўхсанов Қ. Адабиётшунослик атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 2009. – 160 б.